

**KOMPOZITOR FARRUX AKROMOVNING “SUNDAY” ASARIDA
ZAMONAVIY GARMONIYA KO’RINISHLARI**

Mansurova Aziza

O’zbekiston davlat konservatoriysi

“Kompozitorlik va cholg’ulashtirish” kafedrasi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o’zbek kompozitorlari ijodida zamonaviy garmoniya sur’atlari, ularning qo’llanilish tamoyillari haqida so’z boradi. Hamda kompozitor F.Akromovning asosiy garmonik tili va uning asarlaridagi zamonaviylik haqida yoritiladi.

Kalit so’zlar. Zamonaviy garmoniya, yangi uslub, musiqa shakli, garmonik til, polifunktionallik, sekunda, poliqatlamlilik, polifonik garmoniya, polifonik qatlam, politonallik.

Kirish. O’zbek kompozitorlari ijodiyotida zamonaviy garmoniya naqshlari

XX asr musiqa tajribasi shuni ko’rsatdiki, vertikal o’lchamining yangi-yangi muammolari paydo bo’lmoqda, chunki o’zbek kompozitorlari tafakkuri, musiqiy tilining rivojlanishi, ifodalash vositalari xilma-xil uslubiy yo’nalishlarni yuzaga keltiradi va ohangdoshliklarning turi ko’payishiga hamda boyishiga olib keldi.

Milliy – zamonaviy uslubda ijod qiluvchi F.Akromovning asosiy garmonik tili

O’zbekiston kompozitorlari o’z ijodiyotida zamonaviy garmoniya uslublaridan keng foydalanib, turli janrlarda ko’plab asarlar yaratishgan. Lekin bu yo’nalishda talabalar hali o’z ijodiy oq’uv ishlarini yozganlari yo’q. Zamonaviy yo’nalishda ijod qilgan kompozitorlarning asarlari juda ham qiziq, ularning rang barangligi va bir qancha ohangdosh tovushlarning o’zgacha, yorqin birikishi hech qaysi kompozitor yoki musiqachi talabaning e’tiborini tortmay qo’ymaydi. Shuning uchun, bugun men o’z maqolamni aynan o’zbek kompozitorlarining aynan yosh kompozitor ustoz Farrux Akramovning zamonaviy musiqa tiliga bag’ishladim. Ushbu yosh kompozitor ijodkor, ustozimizning deyarli barcha asarlari zamonaviy uslubda yozilgan. Milliy ohang va zamonaviy ovozlarning qo’shilmasida paydo bo’lgan o’ziga xos kuy va garmoniya ijodkorning musiqiy tili va tafakkuri yangi asrning musiqasidan darak berib turibdi.

Kuyni tashkil qiluvchi omillarning eng asosi bu garmoniya. Biz bu fanni bir necha yillardan beri o’rganib, o’z asarlarimizda uning bir necha turlarini ishlatib kelmoqdamiz. Lekin aynan zamonaviy milliy garmoniyani yangi asr ijodkor kompozitorlarimiz bo’lmish ustozlarimizdan chuqur o’rganishimiz va tahlil qilib, bu garmonik tilni o’z ijodimizda qo’llashimiz ma’qulligiga amin bo’lamiz. Hozir Sizda zamonaviy garmoniya bo’yicha nega aynan Farrux Akromovning ijodi va uning

asarlari tahlili va garmoniyasi haqida izlanish qilyapsan degan savol tug'ilishi mumkin. Negaki, Farrux Akromov yosh kompozitor ijodkor, bugungi kunga qadar bir qancha xalqaro konkurslarda o'z asarlari bilan yuqori natija ko'rsatgan laureate va g'olibdir. "Pre-Art, The young composers meeting, Omnibus Laboratorium" kabi jahon miqyosidagi konkurslardir. Albatta, ushbu kompozitorning zamonaviy asarlarini men garmoniya fanini o'zlashtirish davomida yozyapman va menga bu asarni tahlil qilib, uni chuqur o'rganish uchun bir necha ustozlarning o'quv qo'llanmalari, kitoblari asqotdi.

Endi esa Farrux Akromovning "Sunday" asari haqida gaplashsak. Ushbu asar goboy va fortepiano uchun yozilgan bo'lib, o'zining jozibador ohangi va zamonaviy garmonik tili bilan tinglovchilarining qiziqishini yanada orttiradi. Asar o'zgaruvchan o'lchovda, gamofon garmonik faktura asosida yozilgan. O'zgaruvchan o'lchovlar 3/8, 4/8 5/8; Shakl jihatidan esa oddiy 3 qismli pyesa; Garmoniyasi rang barang.

Цикл для гобоя и фортепиано

1. Воскресенье - Sunday

Фаррух Акрамов
Farrukh Akramov

Asar notalariga qaraganingizdayoq u sho'xchan, raqsona ekanligini yaqqol ko'rishingiz mumkin. Sababi, melodiya va garmoniya buni o'z jilosida ko'rsatib turibdi. Kuy boshlanishidayoq, alteratsiyalangan ohanglarga ko'zimiz tushadi. Boshida biroz kam kiritilgan bu intervallar asar davomida polifunktionallik va poliakkordikni tashkil qilib, yorqinlashtirib ko'rsatadi va albatta kiritilgan tonlar ham bundan mustasno emas. Endi esa ushbu atamalar nimani anglatishiga nazar solsak: Musiqa to'qimasining qatlamlarga ajralishi ularning funksional qarama-qarshiligi natijasida kelsa, ya'ni bir ladotonallik ichida har xil garmonik funksiyalar ustma-ust qo'llanilsa, buni **polifunktionallik** deb atashadi. Masalan:

T D, D T, S T va hokazo.

Polifunktionallikning eng oddiy shakli organ punktlar orqali namoyon bo'lishi mumkin. Bu usul Evropa klassik kompozitorlariga juda yaxshi ma'lum bo'lib, XX asr musiqasida o'ziga xos o'zgarishlarga uchragan. Polifunktionallikning ushbu turi musiqaning garmonik tuzilish xususiyatlarida va ohangdoshliklarning ladofunktional

o‘zaro aloqalarida o‘z ifodasini topgan. XX asr kompozitorlari bu vositani kengaytirilgan diatonika va xromatika tizimlari asosida qo‘llashgan. Polifunktionallikning fakturaviy shaklini eng tarqalgan turi – bu yuqoridagi ovozlarni basga qarama-qarshiligidir. Ushbu sharoitdaakkordlarning lad funksiyasini aniqlashda fakturaning ahamiyati juda katta bo‘ladi. U har xil tovushli unsurlarni bir garmonik vertikalga birlashtiradi.

Musiqa to‘qimasida ikkita yoki bir necha mustaqil shakllangan va bir-biridan aniq ajralgan ohangdoshliklarning bir vaqtdagi qo‘shilishi **poliakkordlik** deb ataladi. Poliakkordlikni tashkil qiladigan ohangdoshliklarning har biri o‘z tuzilishiga va interval tarkibiga ega. Masalan, umumiyligining vertikalning unsurlari sifatida bir uchtovushlik boshqa uchtovushlik yoki septakkord bilan, tersiyaviyohangdoshlik tersiyasiz ohangdoshlik bilan, tersiyasiz majmua boshqa tersiyasiz majmua bilan uyg‘unlashishi mumkin.

Poliakkordlikni idrok qilinishiga ko‘pincha faktura –akkordning bayon etilish yo‘li va uning tonlari bir yoki har xil registrlarda joylashganligi sababchi bo‘ladi. Bir xil intervallar tarkibidagi ohangdoshliklar joylashuviga qarab ba’zi holatlarda yaxlit kompleks sifatida, ba’zi holatlarda esa aniq poliakkordlik tuzilmadek anglanishi mumkin.

Zamonaviy musiqanining barchaakkordlari majmuida eng ajoyib va g‘ayritabiyy tuzilmalar – bu **sekunda** bo‘yicha shakllangan ohangdoshliklardir. Sekundali ohangdoshliklarni dastlabki paydo bo‘lishi XIX asrda butuntonli lad hamda tersiyaviy tuzilmadagiakkordlarning ba’zi bir murakkablashuvlari (alteratsiyalar, qo‘shimcha va juftlangan tonlar)dan kelib chiqqan. Ushbu ohangdoshliklar vertikalning mustaqil turiga ajralib, XX asr musiqasida keng tarqalgan. **Sekundakkordlar** qatoriga sekunda intervalidan ketma-ket qatlamlashgan ohangdoshliklar kiradi. Ular yarim yoki butun tonlardan, hamda yarim va butun tonli aralashma intervallardan hosil bo‘lib, ikki, uch, to‘rt va bundan ko‘proq (to o‘n ikkitagacha) tovushlardan iborat bo‘lishi mumkin. Ya’ni, sekundakkordlarda tovushlar soni, interval tuzilmasi va fakturaviy bayon etilishi xilma-xil turlanishi mumkin. Sekundakkordlar bir holatlarda garmonik funksiyaning vakili (ayniqsa ular I, IV va V pog‘onalarda uchrasa), ba’zi holatlarda esa – faqat koloristik ahamiyatiga ega bo‘lishlari mumkin. Sekundali ohangdoshliklarning dissonanslik darajasi katta yoki kichik sekundalar ustun chiqishiga va tonlarining soniga bog‘liqdir.

The musical score consists of four staves of music for Oboe (Ob.) and Piano (Pno.). The score is divided into four sections by measure numbers 39, 44, 48, and 54.

- Section 1 (Measures 39-43):** The Oboe plays a melodic line with eighth-note patterns, primarily in 5/8 time. The Piano provides harmonic support with sustained chords and eighth-note patterns, mostly in 8/8 time. Measure 39 ends with a dynamic of **3**.
- Section 2 (Measures 44-47):** The Oboe continues its melodic line with eighth-note patterns. The Piano maintains harmonic support with eighth-note patterns. Measure 44 ends with a dynamic of **5**.
- Section 3 (Measures 48-52):** The Oboe plays eighth-note patterns. The Piano provides harmonic support with eighth-note patterns. Measure 48 ends with a dynamic of **pp**.
- Section 4 (Measures 54-58):** The Oboe plays eighth-note patterns. The Piano provides harmonic support with eighth-note patterns. Measure 54 ends with a dynamic of **mf**.

Aynan tepada keltirilgan atamalar asarning shu qismlarida yaqqol ko'rinib turibdi.


Yanada tushunarli bo'lishi uchun esa bitta takt funksiyalariga e'tiborimizni qaratamiz.



Ushbu misolda poliakkordlik va sekundakkordlardan tashkil topgan garmoniya. Birinchi qatlam pasaytirilgan sekundakkordlar va kvartakkord nisbatini ham ko'rishimiz mumkin. Re (pasaytirilgan) hamda sol tovushlari kvartakkordlar, re bemol va mi bemol sekundakkordlar. Birinchi qatlamning o'zida 2 xilakkordlar funksiyasining birlashuvini ko'rishimiz mumkin. Ikkinci qatlam esa alteratsiyalangan yarim tonga ko'tarilgan kvartakkordlar va sekundakkordlarning nisbati. Ikkinci qatlamda diyez birinchi qatlamda esa bemol. Eng qizig'i shundaki umumiyyetli tovush sifatida sol notasini olsak, birinchi qatlamda u hech qanday belgilarsiz sof holatda keldi, ammo ikkinchi qatlamda yarim tonga ko'tarilgan holda sekunddakord sifatida keldi. Poliakkordik quyida biz aytgan ta'rifni ushbu asarda qanchalar to'g'ri ekanligini ko'rdik.

Kvarta bo'yicha tuzilgan ohangdoshliklar **kvartakkord** deb belgilanadi. Kvartakkordlarni tashkil etuvchi kvartalar soni ikkidan, to o'n ikkitagacha bolishi mumkin.

O'n ikki tovushli kvartakkord katta tarkibli ko'povozli ohangdoshliklar guruhiiga kirib, yetti pog'onali diatonika chegarasidan chiqib, xromatika tizimida tashkil topadi. Nazariy tomondan qaraganda, bundayakkord qo'llanilishi mumkin. Lekin amaliyotda bunday ko'ptovushli (olti, yetti tovushdan ko'proq) kvartakkordlar (bu kvintakkordlarga ham taalluqlidir) kamdan-kam uchraydi. Kvartakkord o'z tuzilishi jihatidan turlanishi mumkin. Bu kvarta intervalining sof va orttirilgan turlariga qaramlidir.



Endi esa asarning ushbu qismiga e'tiboringizni qarating, bir qarashda poliqatlamlilik mavjudga o'xshaydi. Chunki birinchi qatlamda polifonik xususiyatga ega bo'lgan birinchi ovoz (Si), ikkinchi qatlam arpedjio va interval. Aslida intervalakkordning yoyiq holda kelishidir. Akkordlar bir taktning ichida yoyiq holda arpedjio va intervallar ko'rinishida kelmoqda. Lekin birinchi ovoz ham bor. Ammo bu yerda 3 ta holatni ya'ni birlashuvni ko'rishimiz mumkin. Ammo pastki qatlamning yuqori qatlam bilan deyarli bir xilligi poliqatlamlilikni kichik hajmda ko'rinishi deyishimiz ham mumkin.

Yangi milliy – zamonaviy garmonik uslub nimani anglatadi?

Ko'povozli tizimning har xil qatlamlarga ajralishi zamonaviy musiqaga xosdir. Ko'povozlikning bu turi **poliqatlamlilik** deb ataladi. Musiqa bayonining qavatlanishi aniq sezilishi uchun, uning har bir qatlami o'ziga xos (spesifik) xususiyatlarga ega bo'lishi zarur. Ya'ni mustaqil bo'lib, mantiqan rivojlanishga, qo'llaniladigan vositalarga (faktura, tuzilish, tonallik, funksionallik, lad va ritm) ega bo'lib, boshqa qatlamlarga qarama-qarshi kelishi lozim. Ba'zi vaqtarda esa bu qarama-qarshilik oddiy registrlarning taqqoslanishi natijasida ham paydo bo'lishi mumkin. Poliqatlamlilik musiqa to'qimasini tashkil etuvchi turli negizlari yaxlitligini va o'zaro uyg'unlashuvini namoyon qiladi. Ushbu hodisa, avvalambor, garmoniyaning polifoniyalashtirishda yuzaga keladi, chunki poliqatlamlilik doimo turli mustaqil gorizontal qatlamlarning vertikalda birlashganligini ko'rsatadi. Shuning uchun ushbu hodisa ilmiy adabiyotda «**Qatlamlar polifoniyasি**» deb ham yuritiladi.

Shu bois, alohida ta'kidlash joizki, poliqatlamlilik faqat bir xil musiqa tizimlari asosida tashkil topmay (masalan: garmoniya va garmoniya, monodiya va monodiya, polifoniya va polifoniya), balki har xil tizimlarning birligini namoyon qilishi mumkin (garmoniya va monodiya, garmoniya va polifoniya, monodiya va polifoniya). Qatlamlar soni ikki va undan ortiq bo'lishi mumkinligi hisobga olinganida, poliqatlamlilikning qavatlarini birlashtirishda turlicha imkoniyatlar yuzaga keladi. Poliqatlamlilikning ikki farqlanadigan tizimlardan iborat bo'lgan holatini ilmiy adabiyotda «gomofonik polifoniya» yoki «**polifonik garmoniya**» deb atashadi. Ikki tizimning bir-biri bilan aloqadorligi va chambarchas bog'liqligini e'tiborga olgan holda, xar ikkala atama ham nazariy adabiyotlarda keng qo'llaniladi. Garmoniyada poliqatlamlilikning qavatlarini qarama-qarshiliği uchta asosiy shakllarda namoyon bo'ladi – **poliakkordlik, polifunksionallik va politonallik**. Demak bundan kelib chiqadiki, ushbu asarda poliqatlamlilikning poliakkordlik va polifunksionallik shakllari mavjud. Undan tashqari quyida ta'kidlagan va tahlil qilgan sekundakkordlar, kvartakkordlar, kiritilgan tonlar mavjud. Kompozitor asari tinglovchilarni zeriktirib qo'ymaslik va qiy nab qo'ymaslik uchun ham poliqatlamlilikdan sekin sekin foydalangani va oz ozdan bo'yoqlarni garmoniyaga sachratganini ko'ramiz. Ayniqsa yarim ton ko'tarilish va pasaytirilish ham ularning bitta motiv ichida birga kelishi

keyinchalik esa uning boshqa ko'rinishlar bilan yoyiq holatda namoyon qilishi zamonaviy garmoniya chegarasi yo'qligi undan qanchalar keng foydalanish mumkinligini yaqqol isbotlab beradi. Bu xoh goboy uchun pyesa bo'lsin, xoh fortepiano uchun har bir cholg'u asbobining o'z imkoniyatlari va ranglarini asl holatida kompleks qilib, yanada yangicha va go'zal musiqa yarata olish o'zbek zamonaviy kompozitorining asosiy belgisidandir.

Asar faqatgina garmoniya tarafdan zamonaviy desak, tahlilni sayoz qilgan bo'lamic, aynan o'lchovlari ham ya'ni o'zgaruvchan o'lchovlar ham garmoniya bilan uyg'unlashib ketgan. Tonalliklarga keladigan bo'lsak C durda alteratsiyalangan tovushlar vaakkordlar hamda ularning yoyilib, so'ng birlashib kelishi esa biz yuqorida aytgan poliqatlamlilikning bir ko'rinishidir.



Eng qiziq joyi shundaki agar shu taktakkordlarini birlashtirsak klasterni ham topishimiz mumkin bo'ladi. Faqat notoliq taraflama klaster sifatida. Sababi kompozitor tinglovchini zamonaviy musiqaga yengil olib kirishni va uni zeriktirmasdan ohanglarga moslashtirishni mukammal o'yagan. Bu esa musiqiy professionallik taraflama mantiqni va ijodiy taraflama bo'yoqlarni ko'rsatadi.

Zamonaviy musiqa va uning garmoniyasi bo'yicha ba'zida musiqachilarining o'zlari ham salbiy fikrlar aytishadi. Aslida bu adekvat yondashuv emas, chunki zamonaviy musiqaning ichiga sho'ng'igan va uning asl mohiyatini tushungan musiqachi va tinglovchi uchun bu fikrlar begonadir. Biz shunchaki klassik musiqa va garmoniyaga qattiq o'rganib qolganligimiz va undan biroz keng doiraga o'ta olmayotganimiz zamonaviy musiqani anglashimizga xalaqit qilmoqda.

Aslida milliy musiqa va hatto folklore musiqani ham zamonaviy ohanglar bilan uyg'unlashtirib, zamonaviy va betakror asar yaratsa bo'ladi. Nega bunday ishonib gapiryapman, sababi mazkur asar muallifi Farrux Akromovning milliy musiqamizni zamonaviy koloritda ham ko'rsatgan.

Bugungi kunda esa bu ijodiy ish bilan shug'ullanib kelayotgan Omnibus ansambl ham bor. Milliy zamonaviy musiqamizni butun jahon tinglab, yuqori darajadagi mukamallikda tahsinga loyiq deb ko'rib kelmoqda.

Xulosa. Shu o'rinda xulosa qilib aytamanki, yosh ijodkor va kompozitorlardan shuni so'rab qolgan bo'lardimki, faqatgina klassik ohanglar emas, balki boshqa rangdagi bo'yoqlarni ham ijodingiz zarvaraqlariga qo'shib boring. Kundan kunga rivojlanayotgan bu dunyo tez zerikishni boshlaydi. Asarlardan zeriktirish emas, aniq mafkura bilan ularning qalbidan joy egallab borish kerak. Yangi zamonaviy garmoniyani o'rganishni ham undan foydalanishdan ham qo'rwmang. Ustozlarimiz zamonaviy garmoniyaga oid bir qancha kitoblar va qo'llanma darsliklarni yozishgan va yana yozib kelishmoqda.

Zamonaviy uslubda ijod qiluvchi kompozitor ijodkorlarning asaarlarini tahlil qiling. Bugungi kunda ularning safi kengaymoqda. Farrux Akromov ijodkorimizga keladigan bo'lsak ularning ijodida xohlagancha zamonaviy musiqa, faktura, garmoniyani topasiz.

Milliy zamonaviy ijod hozirgi va keyingi 100 yillik namunasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O.N.Azimova, SH.E.Ibragimova "Zamonaviy garmoniya" O'zbekiston kompozitorlari ijodiyotidaakkordlar tarkibi "Musiqa" nashriyoti Toshkent 2015.
2. Farrux Akromov "Sunday" asaridan ilovalar
3. O.N.Azimova "Garmoniya" nazariy kurs 2017